OLTIN ZANGLAMAS ASARIDAGI OBRAZLAR TAHLILI

Zoyirova Shahrizoda Nurbek qizi

Samarqand davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyot 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shuhratning "Oltin zanglamas " asaridagi urush yillari, vatanga bo'lgan muhabbat, do‘st va dushman, inson qadrining oyoq osti qilinishi hamda ikkiyuzlamachilik kabi insoniy fazilatlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Urush,vatanga bo'lgan muhabbat, do‘st va dushman, ikkiyuzlamachilik, insoniy fazilatlar.

Kishida badiiy asarni to‘g‘ri anglash, undan o'ziga kerakli bo'lgan hayotiy saboqlarni olishi va uni qo‘llay olishi muhimdir.Asarda aynan jamiyatdagi ayrim qo'shtirnoq ichidagiinsonlarning hasadgo‘yligi va yomon xislatlari aks ettirilgan .Shu jumladan, o'sha davrdagi o‘qiluvchining qadri salohiyati hamda asardagi obrazlar vositasida oddiy insonlarning mardligi va vatanparvarligi haqida ma'lumot berib o'tilgan. Sodiqning maktabga kelganiga hali hech vaqt bo'lgani yo'q lekin tekislikdagi tepadek ko'zga tashlanib qoldi.Mana kecha dam olish kuning bahridan kechib sakkizinchi sinfni tarix muzeyiga o‘zi olib bordi .Bir hafta maktabda bo'lmasa ham o'rni yo‘qlanmaydigan bir-ikki o'qituvchining chet-chetdan "musofir dono" deb kesatganini hisobga olmasa ,ko'pchilik Sodiqning atrofida. (4.33) Yuqorida tasvirlangan Sodiq obrazi orqali biz haqiqiy mehnatsevar inson qanaqa yaxshi xislatlarga ega bo'lishi hamda o‘z kasbiga majburiyat sifatida qaramasligini bilib olishimiz mumkin. Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub" asarida ilmli kishilarga xos xislatlar teran ma'noda keltirib o'tilgan. "Har ko'cha-ko‘yda yuguribman va olam ahlidin har xil kishilarga o'zimni yetkazibman.Yaxshi va yomonning fe‘l atvorini bilibman , yomon - yaxshi xislatlarini tajriba qilibman ". (5.125) Biroq ,tanganing ikkinchi tomoni bo'lganidek, bu xislatlardan yiroq va o‘z nafsining quliga aylanib bo'lgan hasadgo‘y Mirsalim obrazini yaqqol ifodasini ko'rishimiz mumkin. "Qo‘shnining tovug‘i g‘oz ko'rinadi " degandek ,Sodiqning bu oddiy ishlari Mirsalimning ko'ziga uni bir pog‘ona ko'tarib qo'ydi. Shu bilan bir vaqtda g'ashini ham keltirib, hattoki, rashkini uyg'otardi. Mirsalim Sodiqning mavqei qancha oshsa,shuncha yaqinroq suykalardi. Darsi biror soat

oldin tugab qolsa,bir narsani bahona qilib aylanib yurar, keyin Sodiq bilan birga uzun-qisqa bo'lib chiqib ketardi .Uning fe‘lini biladigan hazilkashlardan biri "Mirsalim aka sirg'ansa oyoq tirab qolishga joy tayyorlayapti"! desa ,boshqasi .

"Yo‘q, soyabon degin yozda kundan,qishda yog‘indan asraydi", deb kulgiga olardi .(5.43).

Bu jumlalar aynan o‘zgalarning mol-dunyosiga va obro'siga tayanadigan insonlarga qarata aytilgan .Alloh Taoloning maxbub payg'ambari Muhammad Muhammad Mustafo sallolloxu alayxi vasallam Hadisda shunday rivoyat qilganlar: " Odamlarning yomoni ikki yuzli ekanini topasiz .Bularga bir yuz bilan keladi va ularga boshqa yuz bilan keladi " deganlar .(2.67) Yana bir rivoyatlarda "Kimki odamlarga yoqish uchun ular yaxshi ko'rgan narsani ay2tib , Allohga muboraza qilsa, qiyomat kuni Alloh bu bandadan g'azablangan holda bo‘ladi deganlar. Asarda urush yillaring og'ir sinovlari, nohaq ayblovlar bilan qamalgan Sodiq obrazi va uning mardligini uchratishimiz mumkin. Adib bu asarni yozishidan asosiy maqsadi go'yo yer yuzidagi barcha insonlarning to‘g‘ri yo'lga qaytishi va Alloh bergan umrlarini mazmunli o‘tkazishga undab qolgandek.Frontda bombani xavfsizlantirish natijasida halok bo'lgan Sodiq obrazidagi o'zbek o‘g‘lonlari ham yurt tinchligi va oila farovonligi uchun bir vaqtlar o‘z jonlarini qurbon qilishgan. Ertasiga o‘tkazilgan dafn marosimida unga bir paytlar boshliq bo'lgan komissar qabri ustida: U oltin odam edi ! Oltin esa, zanglamaydi. U qanday yashash va kurashishni yosh avlodga sinfdagina o'rgatib qo'ya qolmay,vaqti kelganda uning ajoyib namunasini o‘z timsolida ko'rsatdi.

Yozuvchining "Oltin zanglamas "asari o'zbek adabiyotining bebaho durdonalaridan biri. U bizga o‘zligimizni anglashga, umrimizni qanday ishlarga sarf etayotganimizni bizga eslatib turuvchi manbalar.Muallif Sodiq va Mirsalim obrazi orqali insonliarning asl maqsadlari va Vatan oldidagi burchlarini aks ettirgan. Toki biz : " insonlar nima deydi? " deb emas, balki " Alloh taolo nima deydi?" deb yashamagunimizcha holimizga voy bo'laveradi. O'ylaymanki, har bir inson bu asar voqealari va undagi ziddiyatlarini o'ziga singdiradi va hayotida qo'llaydi.